

Kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini hisoblash tartibi

Kichik biznesning (yakka tartibdagi tadbirkorlik va uy xo'jaliklarining faoliyatini qo'shgan holda) yalpi ichki mahsulotdagi ulushini hisoblash tartibi (keyingi o'rinlarda – Tartib) Milliy hisoblar tizimi – 2008 (keyingi o'rinlarda – MHT – 2008) yo'riqnomasi, shuningdek, Statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model- GSBPM) talablari asosida makroiqtisodiy ko'rsatkichlar hisob-kitoblari metodologiyasini yanada takomillashtirish maqsadida tayyorlangan va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi mutaxassislari tomonidan foydalanish uchun mo'ljallangan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Tartibda quyidagi asosiy tushunchalar va ularning ta'riflaridan foydalaniladi hamda u GSBPMning qayta ishlash bosqichi doirasida ma'lumotlarni integratsiyalash, tasniflash va kodlashtirish, yangi ko'rsatkichlarni shakllantirish, umumlashtirish hamda qayta ishlashni yakunlash jarayonlarini o'z ichiga oladi:

yalpi ichki mahsulot (YAIM) iqtisodiy rezident-birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalovchi va ushbu birliklar tomonidan yakuniy foydalanish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati orqali o'lchanadigan Milliy hisoblar tizimi (MHT)ning asosiy ko'rsatkichlaridan biridir;

ishlab chiqarish hisobot davrida rezident-birliklarning ishlab chiqarish faoliyati natijasi bo'lib, ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning umumiy qiymatini o'zida aks ettiradi;

oralik iste'mol ishlab chiqarish jarayonida xarajatlar sifatida iste'mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymatini o'zida aks ettiradi (asosiy kapital iste'moli sifatida aks ettiriladigan asosiy fondlar iste'moli bunga kiritilmaydi);

yalpi qo'shilgan qiymat ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) va ishlab chiqarish jarayonida to'laligicha iste'mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati (oralik iste'mol) o'rtasidagi farq orqali aniqlanadi;

tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir;

tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) yuridik shaxslar – mikrofirmalar va kichik korxonalar, shuningdek, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar hisoblanadi;

yuridik shaxs o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-

mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi. Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlari kerak;

kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar;

yakka tartibdagi tadbirkorlik jismoniy shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor) tomonidan tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda amalga oshirishdir. Yakka tartibdagi tadbirkorlik yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan mustaqil mulk huquqi asosida o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek, mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiriladi;

uy xo'jaligi – ma'lum bir turar-joy manzilida birga yashovchi, daromadlarini to'liq yoki qisman birlashtirgan holda umumiy ro'zg'or yurituvchi kishilar guruhi. Bunda, uy xo'jaligi a'zolari o'rtasida qarindoshlik aloqalari bo'lishi shart emas.

2. Kichik biznesning (yakka tartibdagi tadbirkorlik va uy xo'jaliklarining faoliyatini qo'shgan holda) yalpi ichki mahsulotdagi ulushi Statistika dasturida nazarda tutilgan muddatlarda yillik va choraklik davriylikda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (IFUT-2)ning seksiyalari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri kesimida shakllantiriladi.

2-bob. Kichik biznesning (yakka tartibdagi tadbirkorlik va uy xo'jaliklarining faoliyatini qo'shgan holda) YAIMdagi ulushini hisoblash uchun axborotlar manbai

3. Kichik biznesning (yakka tartibdagi tadbirkorlik va uy xo'jaliklarining faoliyatini qo'shgan holda) ishlab chiqarishini baholash uchun axborot manbai bo'lib, har yili tasdiqlanadigan Statistika dasturida bajarilishi nazarda tutilgan keng ko'lamdagi axborot resurslari (iqtisodiy faoliyat turlarining qisqa muddatli kuzatuvlari, kichik korxonalar, mikrofirmalar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning tanlanma kuzatuvlari, uy xo'jaligi so'rovnomalari, korxonalar va tashkilotlarning tarkibiy kuzatuvlari va boshqalar) xizmat qiladi.

4. Kichik biznesning (yakka tartibdagi tadbirkorlik va uy xo'jaliklarining faoliyatini qo'shgan holda) iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha oraliq iste'molni yillik davriylikda hisoblash korxona va tashkilotlarning tarkibiy kuzatuvlari to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari va ekspert baholashlar asosida amalga oshiriladi.

5. Kichik biznesning (yakka tartibdagi tadbirkorlik va uy xo'jaliklarining faoliyatini qo'shgan holda) iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha oraliq iste'molni choraklik davriylikda hisoblash, aniqlik kiritilgan yillik hisob-kitoblar asosida,

oraliq iste'molning ishlab chiqarishdagi ulushidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

3-bob. Kichik biznesda (yakka tartibdagi tadbirkorlik va uy xo'jaliklarining faoliyatini qo'shgan holda) yaratilgan qo'shilgan qiymat hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantirish

6. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik biznesda (yakka tartibdagi tadbirkorlik va uy xo'jaliklarining faoliyatini qo'shgan holda) yaratilgan qo'shilgan qiymat hajmi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Q_i = P_i - IC_i, \quad (1)$$

bu yerda,

$Q_i - i$ - iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha kichik biznesda (yakka tartibdagi tadbirkorlik va uy xo'jaliklarining faoliyatini qo'shgan holda) yaratilgan qo'shilgan qiymat hajmi;

$P_i - i$ - iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha yalpi ishlab chiqarish hajmi;

$IC_i - i$ - iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha oraliq iste'mol hajmi.

7. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik biznesning (yakka tartibdagi tadbirkorlik va uy xo'jaliklarining faoliyatini qo'shgan holda) oraliq iste'mol hajmi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarish hisobida mavjud oraliq iste'mol ulushini qo'llash orqali quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$IC_i = \frac{P_i \times k_i}{100 \%}, \quad (2)$$

bu yerda,

$IC_i - i$ - iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha oraliq iste'mol hajmi;

$P_i - i$ - iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha yalpi ishlab chiqarish hajmi;

$k_i - i$ - iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha ishlab chiqarish hisobining yillik yakunlari asosidagi oraliq iste'mol ulushi.

8. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik biznesning (yakka tartibdagi tadbirkorlik va uy xo'jaliklarining faoliyatini qo'shgan holda) YAIMdagi ulushi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Sh_i = \frac{Q_i}{GVA_i} \times 100 \% \quad (3)$$

bu yerda,

$Sh_i - i$ - iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha kichik biznesning (yakka tartibdagi tadbirkorlik va uy xo'jaliklarining faoliyatini qo'shgan holda) YAIMdagi ulushi;

$Q_i - i$ - iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha kichik biznesning (yakka tartibdagi tadbirkorlik va uy xo'jaliklarining faoliyatini qo'shgan holda) qo'shilgan qiymati hajmi;

GVA_i – i - iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha qo'shilgan qiymati hajmi.

9. Kichik biznesning (yakka tartibdagi tadbirkorlik va uy xo'jaliklarining faoliyatini qo'shgan holda) YAIMdagi ulushi kichik biznesda (yakka tartibdagi tadbirkorlik va uy xo'jaliklarining faoliyatini qo'shgan holda) yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmini iqtisodiyot tarmoqlarining yalpi qo'shilgan qiymatiga bo'lish orqali quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Sh = \sum_{i=1}^n \frac{Q_i}{GVA} \times 100 \% \quad (4)$$

bu yerda,

Sh – kichik biznesning (yakka tartibdagi tadbirkorlik va uy xo'jaliklarining faoliyatini qo'shgan holda) YAIMdagi ulushi;

Q_i – i - iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha kichik biznesning (yakka tartibdagi tadbirkorlik va uy xo'jaliklarining faoliyatini qo'shgan holda) qo'shilgan qiymati hajmi;

GVA – jami iqtisodiyotda yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymati hajmi.

Kichik biznesning (yakka tartibdagi tadbirkorlik va uy xo'jaliklarining faoliyatini qo'shgan holda) YAIMdagi ulushini hisoblash bo'yicha jadval ilovada keltirilgan.

4-bob. Yakuniy qoidalar

10. Kichik biznesning (yakka tartibdagi tadbirkorlik va uy xo'jaliklarining faoliyatini qo'shgan holda) YAIMdagi ulushi to'g'risidagi ma'lumotlar milliy hisoblar ko'rsatkichlarining anqlik kiritilgan hisob-kitoblari asosida qayta hisoblanishi mumkin.

11. Mazkur uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari "Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli" (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan "Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma"ga muvofiq amalga oshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni O‘RQ-707 11- avg. 2021- y.
2. Milliy hisoblar tizimi – 2008 // Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa komissiyasi, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, Xalqaro valyuta jamg‘armasi va Jahon banki, 2009- y.
3. European system of accounts – 2010 // Eurostat, 2013.
4. Международная стандартная отраслевая классификация всех видов экономической деятельности (МСОК), четвертый пересмотренный вариант, БМТ, Нью-Йорк, 2009 г.
5. “O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (2-tahrir)”. O‘zDT 005:2011.
6. Statistik ko‘rsatkichlarga qisqacha uslubiy tushuntirishlar // O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi.-Toshkent., 2020- y.

Kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini
hisoblash Tartibiga ilova

**Kichik biznesning (yakka tartibdagi tadbirkorlik va uy xo'jaliklarining faoliyatini qo'shgan holda)
yalpi ichki mahsulotdagi ulushini hisoblash**

IFUT-2 kodlari		Yalpi ishlab chiqarish hajmi (P), mlrd. so'm	Oraliq iste'mol ulushi (k), % da	Qo'shilgan qiymatni aniqlash formulasi	Yalpi qo'shilgan qiymat hajmi (Q), mlrd. so'm	KBning YAIMdagi ulushi formulasi	YAIM (YAQQ)ga nisbatan % da (Sh)
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati – jami	691 443,0	48,3	$Q_i = P_i - \frac{P_i \times k_i}{100} \%$	374 368,8	$Sh = \sum_{i=1}^n \frac{Q_i}{GVA} \times 100 \%$	52,4
	<i>ulardan:</i>						
A	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	306 480,8	42,3		176 988,0		96,8
BCDE	Sanoat	125 733,6	65,7		43 144,2		22,7
F	Qurilish	77 762,0	55,6		34 515,8		75,3
G	Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	62 320,4	40,8		36 864,0		85,1
I	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5 740,6	47,7		3 000,2		70,5
H	Tashish va saqlash	38 001,8	39,9		22 853,1		62,2
J	Axborot va aloqa	3 463,7	30,8		2 395,9		20,0
K	Moliyaviy va sug'urta faoliyati	1 508,4	28,6		1 076,8		3,5
L	Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	42 902,7	13,5		37 104,6		93,1
M	Professional, ilmiy va texnik faoliyat	4 421,8	35,5		2 851,6		35,2
N	Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	6 684,7	39,7		4 029,3		47,0
P	Ta'lim	2 370,8	33,5		1 577,0		3,8
Q	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2 377,8	34,1		1 565,9		7,9
R	San'at, ko'ngil ochish va dam olish	457,2	51,3		222,5		9,3
S	Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	11 216,7	44,9		6 179,8		85,9